

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MIRSOBITOV MIRZIYOD MIRZOXID O'G'LI

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Mirsobitov Mirziyod Mirzoxid o‘g‘li

Tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashda soliq ma’muriyatçiliginin takomillashtirish..... 3

Мирсобитов Мирзиёд Мирзохид ўғли

Совершенствование налогового администрирования для поддержки субъектов предпринимательства 31

Mirsobitov Mirziyod Mirzokhid ugli

Improvement of tax administration to support business entities..... 61

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 66

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MIRSOBITOV MIRZIYOD MIRZOXID O'G'LI

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi
Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt5428 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lif portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kuziyeva Nargiza Ramazanova

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jumayev Nodir Xosiyatovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Normurzaev Umid Xolmurzayevich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashning 2025-yil 24 12 soat 16 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahar, "Amir Temur" shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel.: (+99871) 234-53-34; faks: (+99871) 234-46-26; e-mail: ilmikengash@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (No 1855 raqami bilan ro'yxatga olinган). Manzil: 100000, Toshkent shahar, "Amir Temur" shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel.: (+99871) 234-46-26; e-mail: kutubxona@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "10 12" kuni tarqatildi.
(2025-yil "10 12" dagi 89 raqamli reyestr bayonnomasi).



T.Z.Teshabayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.X.Ataniyazov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

I.N.Qo'ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashda soliq ma'muriyatçiliginin takomillashtirish hozirgi global iqtisodiy sharoitda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. PwC tomonidan har yili e'lon qilinadigan "Paying Taxes" hisobotiga ko'ra, ko'plab davlatlarda soliq jarayonlarini soddalashtirish va raqamlashtirish tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, 2024-yilda dunyo bo'ylab bizneslarning o'rtacha soliq hisobotlarini tayyorlash va taqdim etish uchun sarflaydigan vaqt 234 soatdan 162 soatgacha qisqartirilgan¹, bu esa soliq tizimining soddalashtirilishi va avtomatlashtirilgan jarayonlarning samaradorligini ko'rsatadi.

Jahon amaliyotida tadbirkorlik subyektlarini iqtisodiyotning rivojlanishida hal qiluvchi kuch sifatida ko'rish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki kichik va o'rta biznesni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, balki aholining bandligini oshirish, yangi ish o'rinalarini yaratish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va farovonlik darajasini yaxshilashda ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur sektorning iqtisodiyotdagi ulushi ortgani sari uning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash masalasi davlat siyosatida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, tadbirkorlik subyektlarini samarali rag'batlantirish, ularga qulay biznes muhiti yaratish, ayniqsa, soliq ma'muriyatçiliginin takomillashtirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasida ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Soliq ma'muriyatçiliginin soddalashtirish va shaffof qilish tadbirkorlarning soliq yukini kamaytiribgina qolmay, balki ularning soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lashga bo'lgan intilishini kuchaytiradi. Shu asosda, davlat budgeti daromadlari barqaror ta'minlanadi, iqtisodiyotda investitsion jozibadorlik ortadi va bozor munosabatlarining sog'lom shakllanishiga zamin yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi 2030-yilgacha barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi jon boshiga daromadni oshirish kabi strategik maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan². Ushbu maqsadga erishish yo'lida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash hamda ular uchun qulay iqtisodiy muhit yaratish dolzarb vazifalardan biridir. Biroq hozirgi soliq tizimi va ma'muriyatçiligi hali ham murakkab bo'lib, quyidagi muammolarni keltirib chiqarmoqda: soliqqa tortish jarayonining murakkabligi va notekisligi (2024-yilda aylanmadan soliq to'lovchilar soni 347 mingtani tashkil qilgan, lekin ularning 17 %i soliqqa tortilishdagi yuqori yuk tufayli faoliyatini to'xtatgan); yashirin va norasmiy iqtisodiyot ulushining yuqoriligi (2024-yilda davlat

¹ "Paying Taxes" hisobotlari (so'nggi nashrlar): <https://www.pwc.com/gx/en/services/tax/publications/paying-taxes.html>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-300-sonli qarori, 11.09.2023-yil.

budjeti daromadlari 274,4 trln. so‘m bo‘lgan bo‘lsa, yashirin va norasmiy iqtisodiyot tufayli 132,5 trln. so‘m daromad yo‘qotilgan); soliq yukining kichik biznes uchun nisbatan og‘irligi (aylanmaningadolatsiz qat’iy belgilangan stavkasi, foyda solig‘i va QQSning yuqori stavkasi); soliq imtiyozlari va preferensiyaning samaradorligini tahlil qilish zarurati. Shu sababli tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish tartibini soddalashtirish, ma’muriy jarayonlarni avtomatlashtirish va iqtisodiy rag‘batlarni oshirish masalalari kun tartibida turibdi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-741-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi “Soliq ma’muriyatçiliginis isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-162-sonli Farmoni, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Soliq ma’muriyatçiligini takomillashtirish orqali tadbirkorlik subyektlarini qo’llab-quvvatlash amaliyotining hozirgi holati, muammolari va rivojlanish istiqbollari xorijlik olimlar M.Keen, L.Ojo, M.Basri, A.Faúndez-Ugalde, B.Galle, T.Krieger, J.Chindengwike, P.Braunerhjelm, M.La, L.Zhang, J.Zhang³ning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

³ Keen M., Slemrod J. Optimal tax administration. // Journal of Public Economics. 2017. T. 152. C. 133-142; Ojo L.O. Impact of tax administration on government revenue in developing economy: A case study of Nigeria. // Advance Journal of Financial Innovation and Reporting. 2020. T. 4. №. 4; Basri M.C. et al. Tax administration versus tax rates: evidence from corporate taxation in Indonesia. // American Economic Review. 2021. T. 111. № 12. C. 3827-3871; Faúndez-Ugalde A., Mellado-Silva R., Aldunate-Lizana E. Use of artificial intelligence by tax administrations: An analysis regarding taxpayers’ rights in Latin American countries. // Computer Law & Security Review. 2020. T. 38. C. 105441; Galle B., Shay S. Admin Law and the Crisis of Tax Administration. // NCL Rev. 2022. T. 101. C. 1645; Krieger T. A model-theoretical analysis for digital tax administrations. // International Journal of Innovative Technologies in Economy. 2021. №. 2 (34); Chindengwike J. The Influence of Electronic Tax Administration System on Taxpayers’ Voluntary Compliance in Tanzania. // Available at SSRN 4068579. 2022; Braunerhjelm P., Eklund J.E., Thulin P. Taxes, the tax administrative burden and the entrepreneurial life cycle. // Small Business Economics. 2021. T. 56. C. 681-694; La M. et al. Issues of improving the basis of tax administration. // HOLDERS OF REASON. 2024. T. 2. №. 6. C. 184-189; La M. et al. Issues of improving the basis of tax administration. // HOLDERS OF REASON. 2024. T. 2. №. 6. C. 184-189; Zhang L., Chen W., Peng L. The impact of tax enforcement on corporate investment efficiency: evidence from the tax administration information system. // Accounting & Finance. 2023. T. 63. №. 2. C. 1635-1669; Zhang J. et al. Does the supply of tax information affect financial restatements? Evidence from the launch of Taxation Administration Information System III in China. // Humanities and Social Sciences Communications. 2024. T. 11. №. 1. C. 1-13.

MDH mamlakatlari olimlari A.Lobachev, A.Anisimova, O.Gerasimenk, O.Staroverova, Y.Kirova, Y.Zolochevskaya, Z.Novokshonova, O.Shinkaryova, N.Nagornaya, S.Snegina⁴ tadbirkorlik subyektlariga raqamlashtirilgan soliq xizmatlarni taklif qilish, soliq ma'murchilagini modernizatsiya qilishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, sun'iy intellekt, blokcheyn, machine learning, bulutli texnologiya, bigdate asosida qurilgan elektron raqamli platformalar va dasturiy mahsulotlarni takomillashtirish orqali sifatli xizmat ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.Malikov, N.Kuziyeva, N.Haydarov, B.Sanakulova, I.Niyazmetov, U.Berdiyeva, S.Giyasov, Q.To'xsanov, U.Normurzayev⁵ va boshqalarning ilmiy ishlarida soliq ma'murchilagini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish yo'nalishlari, jismoniy va yuridik shaxslarda soliq yukini kamaytirishda optimal soliq siyosatini ishlab chiqishning konseptual-huquqiy asoslari tadqiq qilingan.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarda aynan iqtisodiyotni raqamlashtirish

⁴ Лобачев А.А. Налоговое администрирование и налоговый контроль в современной России. // Образование и право. 2023. №. 2. С. 159-164; Анисимова А.А. Налоговое администрирование в изменившейся реальности: как вовлечь налогоплательщиков в цифровую среду? // Налоги и налогообложение. 2023. №. 4. С. 54-66; Герасименко О.А., Галль А.В. Реформирование налогового администрирования через внедрение новых цифровых технологий в работу Федеральной налоговой службы России. // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2023. №. 5-1 (80). С. 235-238; Староверова О.В. Цифровые технологии налогового администрирования. // Вестник экономической безопасности. 2023. №. 1. С. 266-269; Кирова Е.А. и др. Инновационное развитие налогового администрирования в России. // Финансы: теория и практика. 2024. Т. 28. №. 1. С. 85-97; Золочевская Е.Ю., Скидан А.В., Архипова К.С. Тенденции налогового администрирования в современных экономических условиях. // Государственное и муниципальное управление. Ученые записки. 2023. №. 1. С. 68-75; Новокшонова З.В. Роль налогового администрирования в системе обеспечения финансовой безопасности государства. // Весенние дни науки: сборник докладов Международной конференции студентов и молодых ученых. – Екатеринбург: Издательство Издательский Дом «Ажур», 2023. С. 1274-1277; Шинкарёва О.В. Упрощение налогового учета для предпринимателей: роль цифровизации. // Новые экономические Вызовы и возможности. 2023. С. 69-74; Нагорная Н.А., Карпович Д.М. Упразднение процедуры санации в отношении индивидуальных предпринимателей как способ реформирования института предпринимательства. 2023; Снегина С.Н. Экспериментальный подход в правовом регулировании предпринимательской деятельности на примере самозанятости. // Актуальные направления развития отраслей права в условиях новой реальности. 2023. С. 642-645.

⁵ Malikov A. "O'zbekistonda soliq ma'murchilagini samarali tashkil etish va uni takomillashtirish yo'llari" mavzusidagi PhD doktorlik dissertatsiyasi. – T., 2011-y, 148 bet; Kuziyeva N.R. "Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari" mavzusidagi i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T., 2008. – 300 b.; Malikov T.C., Haydarov N. Moliya: umum davlat moliyasi; Sanakulova B. "Kichik korxonalarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish va soliq yukini kamaytirish yo'llari" mavzusidagi i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T., 2011. – 150 b.; Sanakulova B. "Kichik tadbirkorlik subyektlarining soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash" mavzusidagi i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T., 2016. – 322 b.; Niyazmetov I. "Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimining barqarorligini ta'minlash" mavzusidagi i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T., 2018. – 231 b.; Berdiyeva U. "Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish yo'llari" mavzusidagi i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T., 2019. – 154 b.; Giyasov S. "Korxonalarning innovatsion-investitsion faoliyatini tartibga solishda soliq imtiyozlarini takomillashtirish" mavzusidagi PhD doktorlik dissertatsiyasi. – T., 2019-y. – 193 bet; To'xsanov Q. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqqa tortishni takomillashtirish" mavzusidagi PhD doktorlik dissertatsiyasi. – T., 2019-y. – 150 bet; Normurzayev U. "Soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish yo'llari" mavzusidagi PhD doktorlik dissertatsiyasi. – T., 2020-y. – 128 bet.

sharoitida tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashda soliq ma'muriyatçiliginin takomillashtirish masalasi kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. O'zbekistonda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda soliq boshqaruvin optimallashtirish va tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan moliyaviy yordam va imtiyozlar jarayonini yengillashtirish masalalari ham chuqur va keng tahlilga muhtojligini ko'rsatmoqda. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq qilingan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliv ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya, sug'urta va bank ishi tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashda soliq ma'muriyatçiliginin takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasida soliq ma'murchiligin raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirishning huquqiy asoslarini tahlil qilish va raqamli yondashuvlar bilan integratsiya qilish yo'nalishlarining nazariy asoslarini o'rganish;

raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatçiligin rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish;

tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish mexanizmlarini tahlil qilish va ularni soliq yengilliklari orqali qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

foya solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i, resurs soliqlari ma'muriyatçiliginin takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish;

raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimini transformatsiya qilish va soliq yig'imlarini oshirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilish;

xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish va ilg'or yondashuvlarni O'zbekistonda soliq tizimiga moslashtirish orqali soliq ma'muriyatçiliginin takomillashtirish;

soliq tizimini tadbirkorlik subyektlari uchun yanada qulay qilish maqsadida raqamli ma'muriyatçilikni tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasidagi tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish amaliyoti hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti soliq ma'murchiligin takomillashtirish orqali tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishda yuzaga keladigan moliyaviy

munosabatlar majmuyidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda statistik qiyoslash, taqqoslash, kuzatish, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, sintez, iqtisodiy va matematik modellashtirish, ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish, tanqidiy va ilmiy abstraksiya, ekspert baholash, o'zaro tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

umumiylar ovqatlanish korxonalarini yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini va mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lashdan ozod etilishi va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan ijtimoiy soliq stavkasini bazaviy hisoblash miqdorining 50 foiziga qisqartirish taklif etilgan;

qimmatbaho va nodir metallar hamda uglevodorod xomashyosini qazib oluvchi yuridik shaxslarni maxsus renta solig'i to'lovchilar tarkibiga va realizatsiyadan olingan renta daromadi soliq obyektiga kiritish lozimligi asoslangan;

umumiylar ovqatlanish korxonalarini soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzdarlik hamda jarima va penyalarni foizsiz, arizasiz, faqat soliq organlarini xabardor qilib, teng ulushlarda kechiktirib to'lash va bo'lib-bo'lib to'lash huquqini berish taklif etilgan;

yangi tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlariga aylanmadan olinadigan soliq stavkasi, yer solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlarni kamaytirilgan holda 1 foizli stavkada to'lash taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahallaning "faol" modelini joriy etish, uni aholi muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta'minlash maqsadida mahallalarda yangi institut sifatida joriy qilingan tadbirkorlikni rivojlantirish, mahallalarning "o'sish nuqtalari" va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ularda istiqomat qilib, faoliyat yurituvchi aholini davlat tomonidan soliqlar yordamida qo'llab-quvvatlash tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

hisobvaraq-fakturalarda yoki nazorat-kassa texnikasi cheklarida olingan tovarlar (xizmatlar) nomenklaturasiga yoxud faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga va amalga oshiriladigan turlariga muvofiq bo'lmasligi identifikasiya kodlarini aks ettirganlik uchun moliyaviy jarima solinmasligi asoslab berilgan;

bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, shuningdek, tugallanmagan qurilish obyektlarida band bo'lgan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk va yer soliqlarining oshirilgan stavkalarini qo'llash, soliq imtiyozlari va preferensiyalarning amal qilishini to'xtatish tartibini bekor qilish zarurligi isbotlangan;

soliq ma'murchiligi tizimi samaradorligini oshirishda raqamli

texnologiyalardan unumli foydalanish, jumladan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tovar-moddiy resurslarni hisobga olishni shakllantirish va kamaytirish bilan bog‘liq barcha operatsiyalarni soliq organlarining “E-aktiv” axborot tizimida ixtiyoriy aks ettirish zarurligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborotlar bazasining rasmiy manbalardan, jumladan, soliq faoliyatiga oid statistikaning O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank, Milliy statistika qo‘mitasining hisobotlaridan olinganligi, xulosa va takliflarning amalda sinovdan o‘tkazilganligi hamda olingan natijalarning O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflardan tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashda, soliq ma’muriyatichilagini takomillashtirishda, mamlakatimizda “Soliq nazariyasi”, “Soliqlar va soliqqa tortish” va “Soliq ma’murchiligi” fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan rivojlantirishda hamda jismoniy va yuridik shaxslarni soliqqa tortishda raqamli texnologiyalar va fintexlardan foydalanish orqali takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish va soliqlar yordamida tartibga solish qoidalarini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar va chora-tadbirlar dasturlarini, jumladan, strategik dasturlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishda va oliv ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan jismoniy va yuridik shaxslarga oid fanlarning o‘quv dasturlarini mutlaqo yangi yondashuvlar asosida takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashda soliq ma’muriyatichilagini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

umumiyl ovqatlanish korxonalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lashdan ozod etilishi, respublika tumanlarida faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan ijtimoiy soliq stavkasini bazaviy hisoblash miqdorining 50 foiziga qisqartirish bo‘yicha taklifi Soliq kodeksining 483-moddasida tasdiqlanib, amaliyatga joriy etildi (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2022-yil 14-sentabrdagi 15-123037-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ushbu taklif amalga oshirilsa, umumiyl ovqatlanish korxonalari va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq yuki sezilarli darajada kamaytiriladi. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i va

mol-mulk solig‘idan ozod qilish korxonalarning likvidlik holatini yaxshilagan, investitsiyalar va faoliyatni rivojlantirish imkoniyatini oshirgan;

qimmatbaho va nodir metallar hamda uglevodorod xomashyosini qazib oluvchi yuridik shaxslarni maxsus renta solig‘i to‘lovchilar tarkibiga va realizatsiyadan olingan renta daromadi soliq obyektiga kiritish taklifi Soliq kodeksining 454¹⁻²-moddalarida o‘z aksini topib, amaliyotga joriy etildi (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2022-yil 14-sentabrdagi 15-123037-sonli ma’lumotnomasi). Natijada qimmatbaho va nodir metallar hamda uglevodorod xomashyosini qazib oluvchi yuridik shaxslar maxsus renta solig‘i to‘lovchilar tarkibiga kiritilganda, ushbu korxonalar soliq majburiyatlarini aniq va shaffof tarzda bajarishda erishilgan;

umumiyl ovqatlanish korxonalari soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarzdorlik hamda jarima va penyalarni foizsiz, arizasiz, faqat soliq organlarini xabardor qilib, teng ulushlarda kechiktirib to‘lash va bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqini berish taklifi Soliq kodeksining 482-moddasida o‘z aksini topib, amaliyotga joriy etildi (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2022-yil 14-sentabrdagi 15-123037-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, umumiyl ovqatlanish korxonalari uchun soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarzdorlikni foizsiz va arizasiz, faqat soliq organlarini xabardor qilib, teng ulushlarda kechiktirib to‘lash imkoniyati berilganda, korxonalar likvidlikni saqlash va operatsion xarajatlarini o‘z vaqtida qoplash imkoniyatiga ega bo‘lgan;

yangi tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlariga aylanmadan olinadigan soliq stavkasi, yer solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlarni kamaytirilgan holda 1 foizli stavkada to‘lash taklifi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2022-yil 14-sentabrdagi 15-123037-sonli ma’lumotnomasi). Natijada soliq yengilliklari orqali iqtisodiy rag‘batlantirish, investitsion faollikni kuchaytirish va kichik hamda o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash mumkin bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti natijalari 2 ta xalqaro va 2 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ilmiy ma’ruzalar sifatida bayon etilgan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan, 3 ta nufuzli xalqaro журнallarda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy журнallarda 3 ta maqola va tezislar chop etilgan.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya ishining hajmi 166 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida bajarilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar ko‘rib chiqilib, muammoning o‘rganilganlik darajasi ochib berilgan, shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqotning aprobatsiyasi va uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish to‘g‘risida chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma’muriyatichiligi va uning nazariy-huquqiy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekiston Respublikasida soliq qonunchilagini rivojlantirishning huquqiy tartibga solish masalalari, raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma’muriyatichiligining nazariy asoslari yoritilib, ushbu sohaning samaradorligini oshirishga oid tamoyillar ko‘rib chiqildi. Bundan tashqari tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish mexanizmi orqali qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari o‘rganilib, ushbu mexanizmning iqtisodiy va huquqiy jihatlari atroflicha ko‘rib chiqildi.


Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi farovon turmushini ta’minlashda muhim o‘rin tutayotgan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash masalasi davlat siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biridir, bu borada soliq islohoti davlatning iqtisodiy siyosatida muhim rol o‘ynaydigan jarayon bo‘lib, uning asosiy maqsadi soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish va adolatli soliqqa tortish tizimini yaratishdir. Soliq islohotlari davlat budjeti uchun barqaror daromad manbayi yaratish, soliq to‘lovchilar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda iqtisodiyotning yashirin qismini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini o‘z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm. Zamonaviy soliq islohoti turlari⁶

⁶ Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlandi.

Soliq islohoti va soliq ma'muriyatichiligi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, samarali soliq tizimini shakllantirish va davlat budgetining barqaror daromad manbalarini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. Soliq islohotlari soliq qonunchiligini modernizatsiya qilish, soliqqa tortish mexanizmlarini soddalashtirish hamda iqtisodiyotning turli sektorlarida soliq yukini adolatli taqsimlashga qaratilgan bo'lsa, soliq ma'muriyatichiligi ushbu islohotlarni amaliyatga joriy qilish, soliq to'lovchilar bilan samarali o'zaro aloqani yo'lga qo'yish va soliq to'lovlarining oshkorligini ta'minlash orqali o'z vazifasini bajaradi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatichiligini takomillashtirish soliq islohotlarining samaradorligini oshirishda va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim vosita hisoblanadi.



2-rasm. Soliq ma'muriyatichiligi funksiyalari, vazifalari va tamoyillari⁷

Soliq tizimini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish davlatlar uchun soliq yig'ish jarayonini soddalashtirish va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu sababli raqamli iqtisodiyotda soliqqa tortish va soliq ma'muriyatichiligini isloh qilish masalasi zamonaviy iqtisodiy siyosatning muhim yo'naliishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jahon banki ishtirokidagi "Soliq ma'muriyatichiligini isloh qilish" loyihasi bo'yicha qarori soliq tizimini zamonaviylashtirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan muhim hujjatdir. Prezident qaroriga ko'ra, Jahon banki Xalqaro taraqqiyot uyushmasi orqali O'zbekiston Respublikasiga 30 yil muddatga, shu jumladan, 5 yil imtiyozli davr bilan 60 million AQSh dollari miqdorida qarz ajratdi. Ushbu mablag'lar soliq ma'murchiligini isloh qilish bo'yicha strategik maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan. Loyiha natijasida: soliqlarni hisoblash va to'lashni avtomatlashtirish darajasini 90 foizgacha oshirish tadbirkorlik subyektlari uchun soliqlarni hisoblash va to'lash jarayonini soddalashtiradi va inson omilini kamaytiradi; elektron xizmatlar sonini oshirish soliq to'lovchilarni to'liq qamrab olish orqali soliq

⁷ Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlandi.

organlari faoliyati shaffofligini oshirishga xizmat qiladi; QQS undiruv darajasini 75 foizga yetkazish; soliq to‘lovchilarning vaqt sarfini 2 baravargacha kamaytirishga erishish maqsad qilingan.

1-jadval


Raqamli texnologiyalar, ularning tavsifi va soliq ma’muriyatichiligidagi foydalanish yo‘nalishlari tavsifi⁸

Raqamli texnologiya	Tavsifi	Soliq ma’muriyatichiligidagi foydalanish yo‘nalishi
Sun’iy intellekt (AI)	Ma’lumotlarni qayta ishslash va tahlil qilish orqali avtomatik qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega algoritmlar va dasturiy ta’minot	Soliq to‘lovchilar faoliyatini avtomatik ravishda monitoring qilish, soliq to‘lash qobiliyatini baholash, auditorlik jarayonlarini soddalashtirish va soliq to‘lovchilarni segmentatsiya qilish uchun foydalaniladi
Blokcheyn texnologiyasi	Tarqatilgan ma’lumotlar bazasi texnologiyasi bo‘lib, tranzaksiyalarni shaffof va xavfsiz saqlashga imkon beradi	Soliq to‘lovchilarning ma’lumotlarini xavfsiz saqlash, soliqqa tortish jarayonlarini shaffof va ishonchli qilish, soliqqa oid ma’lumotlarning o‘zgartirilmasligini ta’minalash
Bulutli texnologiyalar (Cloud Computing)	Bulutli infratuzilmadan foydalanib, ma’lumotlarni masofaviy saqlash va qayta ishslash imkonini beradi	Soliq to‘lovchilar uchun soliq hisobotlari va hujjatlarni elektron tarzda topshirish, ma’lumotlar bazalarini masofaviy boshqarish, soliq yig‘ish jarayonlarini onlayn kuzatish
Elektron to‘lov tizimlari	Onlayn to‘lovlarni amalga oshirish va boshqarish imkonini beradigan texnologiyalar	Soliq to‘lovlarni onlayn amalga oshirish, soliq to‘lovchilar va davlat o‘rtasidagi to‘lov operatsiyalarini tezlashtirish va xavfsiz qilish
Raqamli audit vositalari	Avtomatik tarzda audit qilish uchun yaratilgan dasturlar va algoritmlar	Soliq to‘lovchilarning moliyaviy faoliyatini tahlil qilish, soliqqa oid buzilishlarni aniqlash, jarayonlarni avtomatlashtirish orqali tezkor audit o‘tkazish
Ma’lumotlar bazasi (Big Data)	Katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash, boshqarish va tahlil qilish texnologiyalari	Soliq to‘lovchilarning katta hajmdagi moliyaviy ma’lumotlarini tahlil qilish, yashirin va norasmiy iqtisodiyot va soliqlardan qochishni aniqlash, soliq siyosatini takomillashtirish
Elektron hujjatlar aylanishi	Elektron hujjatlarni yaratish, imzolash va almashish tizimi	Soliq to‘lovchilar tomonidan soliq deklaratsiyalari va hisobotlarni elektron tarzda taqdim etish, soliqqa oid hujjatlarni masofadan imzolash va tasdiqlash
Raqamli identifikasiya vositalari	Shaxslarni elektron identifikasiyalash texnologiyalari	Soliq to‘lovchilarni identifikasiyalash, onlayn soliq xizmatlaridan foydalanishda xavfsizlikni ta’minalash va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy ko‘rsatkichlaridagi ulushi davlatning soliqlarni boshqarish va ma’muriyatichilik tizimiga bevosita bog‘liqdir. 2020-2024-yillar davomida kichik biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini va uning o‘zgarish tendensiyalari soliqlarning to‘g‘ri boshqarilishi hamda tadbirkorlik muhitiga davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash choralarining samarasini ochib beradi (3-rasm). Kichik biznesning YaIMdagi ulushi 2020-yildagi 56 %dan 2024-yilda 51,2 %gacha pasaygan. Bu pasayish bir tomondan iqtisodiyotda yirik


⁸ Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlandi.

biznesning ulushi oshayotganligini ko‘rsatsa, boshqa tomondan kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish uchun qo‘shimcha choralar zarurligini bildiradi.



3-rasm. Kichik biznesning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili, foizda⁹

Tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish mexanizmi orqali qo‘llab-quvvatlash davlatning iqtisodiy siyosatining muhim qismi bo‘lib, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Soliqqa tortish mexanizmi orqali tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash quyidagi asosiy yo‘nalishlar orqali amalga oshiriladi (4-rasm).



4-rasm. Investitsiyalarni soliq imtiyozlari orqali qo‘llab-quvvatlash usullari¹⁰

⁹ www.stat.uz ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

¹⁰ Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlandi.

Soliq yukini izchil ravishda kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatçılığının takomillashtırış mamlakat iqtisodiyotını tezkor rivojlantırış hamda investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, mazkur sohada iqtisodiy o'sishni barqaror ta'minlash, ishbilarmonlik faolligini kuchaytirish va soliq yig'imlarini oshirishda tizimli muammolar mavjud. Ushbu muammolar soliq tizimining samaradorligini pasaytirib, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga ham to'sqinlik qilmoqda.

Birinchidan, umumbelgilangan soliqlar to'lovchilari uchun soliq yukining yuqoriligi va soddalashtirilgan hamda umumbelgilangan soliq tizimlari o'rtasidagi soliq yukining katta farqlari iqtisodiy faoliyatni murakkablashtiradi. Ushbu tafovut xo'jalik subyektlari o'rtasidagi raqobatni cheklaydi va korxonalar o'sishini sekinlashtiradi.

Ikkinchidan, qo'shilgan qiymat solig'ini undirish tizimining samarasizligi bo'lib, bu jarayon yirik va kichik biznes o'rtasidagi kooperatsiya rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Qo'shilgan qiymat solig'i orqali jalb etiladigan aylanma mablag'lar tadbirkorlarning ish kapitalini qisqartiradi va bu, oxir-oqibat, mahsulot narxining oshishiga olib keladi.

Uchinchidan, mehnatga haq to'lash fondiga yuqori soliqlar joriy etilishi tadbirkorlik subyektlarini xodimlar sonini yashirish va ish haqini qonundan yashirishga majbur qilmoqda. Ushbu yuqori soliq stavkalari mehnat bozori shaffofligini kamaytiradi va xodimlar huquqlari buzilishiga olib keladi.

To'rtinchidan, imtiyozlarning samaradorligini nazorat qilish bo'yicha tizimning yo'qligi soliq va bojxona imtiyozlari amaliyotini nazoratsiz qoldirib, sog'lom raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xo'jalik subyektlariga taqdim etilayotgan maxsus imtiyozlar bozor tengligini buzadi va iqtisodiy rivojlanishning umumiy tamoyillariga zid keladi.

Beshinchidan, davlat organlari va tashkilotlari o'rtasidagi axborot almashinuvining takomillashmaganligi soliq nazorati va elektron ma'muriyatçilik samaradorligini pasaytiradi. Soliq to'lovchilarning soliqqa oid jarayonlarini avtomatlashtirish va elektron xizmatlardan foydalanishni kengaytirish soliq jarayonlarini samarali boshqarishda yetakchi ahamiyatga ega.


Oltinchidan, nazorat tadbirlarini sifat jihatidan yaxshilashda xavf-xatarlarni boshqarish tizimining yetishmasligi xususiy tadbirkorlarning qonuniy faoliyatiga asossiz aralashishlarni keltirib chiqaradi. Bu esa nazorat organlariningadolatli va samarali faoliyatini ta'minlashda muhim to'siq bo'lib qolmoqda.

Yettinchidan, mahalliy soliq va yig'imlar tizimining samarali ishlamayotgani hamda ko'chmas mulk va yer uchastkalarining to'liq hisobga olinmasligi soliq tushumlarining yetarlicha darajada bo'lmasligiga, natijada tadbirkorlar zimmasidagi soliq yukining ortishiga olib kelmoqda. Shu sababli soliq ma'muriyatçılığı mexanizmlarini takomillashtırış orqali soliqlarni yig'ish samaradorligini oshirish va iqtisodiy resurslarni to'g'ri baholash zarur.

Dissertatsiyaning "**Soliq turlari bo'yicha soliq ma'muriyatçılığının takomillashtırış**" deb nomlangan ikkinchi bobida soliqlarning yig'iluvchanligini

oshirishda soliq ma'muriyatichiligi muammolari, tadbirkorlar daromadlarini soliqqa tortish ma'muriyatichiliginu takomillashtirish hamda bilvosita va resurs soliqlari bo'yicha soliq ma'muriyatichiligining joriy holati tahlili amalga oshirilgan.

2020-2024-yillar davomida O'zbekistonning rasmiy va real soliq yuki hamda MDH davlatlari o'rtacha soliq yukining dinamikasi ko'rsatilgan. Rasm ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, O'zbekistonning real soliq yuki rasmiy soliq yukidan ancha yuqori bo'lib, 2022-yilda eng yuqori nuqtaga yetgan. MDH davlatlari o'rtacha soliq yuki esa 2023-yilda eng past darajaga tushgan va 2024-yilda biroz tiklangan. Bu ko'rsatkichlar mamlakatlarning iqtisodiy siyosati va soliqlarni boshqarish strategiyalaridagi farqlarni aks ettiradi.



5-rasm. Soliq yuki tahlili¹¹

Shuni ham ta'kidlash joizki, rasmiy soliq yukini hisoblashda haqiqatda budjetga undirilgan soliq miqdori va YaIM nisbati orqali hisoblanganligi mamlakatlardagi soliq organlarining fiskal salohiyati to'g'risida ham axborot beradi. Ya'ni mamlakatdagi past soliq yuki MDH davlatlarida yashirin iqtisodiyotning kuchayganligi to'g'risida ham dalolat beradi. Chunki iqtisodiy faoliyat turlari, aylanmalar, daromadlar, mulklar va boshqa soliqqa tortish mumkin bo'lgan obyektlarning to'liq hisobga olinmasligi oxir-oqibatda yalpi soliq bazalarining torayishiga olib keladi.

Bugungi kunda soliq ma'murchiligiga, jumladan, soliqlarning yig'iluvchanligi, davlat budjeti daromadlarini prognoz qilish va soliq siyosatining samaradorligini ta'minlashga yashirin va norasmiy iqtisodiyot sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Soliq to'lovchilarning yashirin iqtisodiy faoliyati real daromadlarni aniqlashni qiyinlashtiradi, bu esa soliq organlari uchun soliq tushumlarini rejalashtirishda noaniqliklarni yuzaga keltiradi.

¹¹ <https://www.heritage.org/index/pages/all-country-scores> web-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari bo‘yicha soliq tushumlari darajasi (foiz hisobida)¹²

Viloyatlar	Yillar						2024-yilda 2023-yilga nisbatan o‘zgarishi
	2019	2020	2021	2022	2023	2024	
Qoraqalpog‘iston Res.	90,6	89	97,5	96,3	95,3	96,9	1,6
Andijon viloyati	87,5	91,5	95,1	90,8	94,9	95,5	0,6
Buxoro viloyati	92,5	98,1	95,8	92,7	93,4	94,8	1,4
Jizzax viloyati	85,8	95,6	95,6	89,8	90,4	91,7	1,3
Qashqadaryo viloyati	92,9	89,4	94,3	98	98,1	99,3	1,2
Navoiy viloyati	99,8	96,2	90	91,8	95,6	96,3	0,7
Namangan viloyati	92,9	46,1	98,2	91,7	93,3	94,9	1,6
Samarqand viloyati	94,3	94,3	94,5	92,4	94,3	95,7	1,4
Surxondaryo viloyati	88,6	92,4	97,2	97,4	98,9	99,7	0,8
Sirdaryo viloyati	96,2	96,4	95,2	98,8	99,2	99,8	0,6
Toshkent shahri	103,3	100,9	103,1	96,1	98,5	99,9	1,4
Toshkent viloyati	96,6	91,7	93,3	93,1	95,7	97,5	1,8
Farg‘ona viloyati	92,4	96,3	96	98,1	98,8	99,4	0,6
Xorazm viloyati	96,6	88,9	95,6	94,8	96,5	97,6	1,1

Tadbirkorlik subyektlarining soliqqa tortish tartibidagi o‘zgarishlar foyda solig‘i va aylanmadan soliq to‘lovchilar soni dinamikasida muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi (3-jadval).

3-jadval

Tadbirkorlik subyektlarida soliq to‘lovchilar soni (mingta)¹³

Tadbirkorlik subyekti turlari	Eski tartib (ishchilar soni mezoni)		Yangi tartib (tovar aylanmasi mezoni)					O‘zgarish (2024/2020), marta
	2017	2018	2020	2021	2022	2023	2024	
Foyda solig‘i to‘lovchilar	7	8	53	114	145	174	214	+4.03
Aylanmadan soliq to‘lovchilar	156	165	177	322	307	331	362	+2.04
YaTT	182	243	322	288	377	238	210	-0.73
O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar	-	-	-	518	1211	1600	2041	-
Jami:	345	415	553	1242	2040	2343	2655	+4.80

Foyda solig‘i to‘lovchilar soni 2017-yildagi atigi 7 mingta subyektdan 2024-yilda 214 mingtaga oshgan, bu 30 marta ortishni anglatadi. Ushbu o‘sishning asosiy sababi soliq tizimining yangi tartiblari, jumladan, tovar aylanmasi bo‘yicha mezonlarning joriy etilishi va soliqqa tortish mexanizmlarining kengaytirilganidir. Biroq bu kichik tadbirkorlar uchun moliyaviy yukning oshishiga va ularning rasmiy iqtisodiyotdan chiqib ketish xavfiga olib kelmoqda. O‘zini o‘zi band qilish rejimining joriy etilishi YaTT (Yakka tartibdagi tadbirkorlar) sonining kamayishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. 2020-yilda 322 ta bo‘lgan YaTT soni 2024-yilga kelib, 210 taga tushdi, bu esa 27 %oga qisqarishni anglatadi.

¹² O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi hisobot ma’lumotlari.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi hisobot ma’lumotlari.

4-jadval

Tadbirkorlik subyektlarining soliq tushumi tahlili, mlrd. so‘m¹⁴

Soliq tushumlari	Eski tartib (ishchilar soni mezoni)		Yangi tartib (tovar aylanmasi mezoni)					O‘zgarish (2024 y./2020 y.) marta
	2017 y.	2018 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	
Foyda solig‘i tushumi	1 476	3 283	28 712	38 363	37 650	40 779	44 801	1.56
Aylanmadan soliq tushumi	3 458	4 706	1 354	1 649	2 513	2 407	2 758	2.03
Qat’iy belgilangan daromad solig‘i tushumi	1 043	1 025	386	390	393	398	402	1.04
Jami	5 977	9 014	30 452	40 402	40 556	43 584	47 961	1.57

Qat’iy belgilangan daromad solig‘i tushumi esa nisbatan barqarorligini yo‘qotib bormoqda. 2017-yilda 1 043 milliard so‘mni tashkil etgan tushum keyingi yillarda pasaygan holda 2024-yilda 402 milliard so‘mga tushgan. Bu pasayish, o‘zini o‘zi band qilish rejimining keng joriy etilishi va qat’iy belgilangan daromad solig‘ini to‘lashdan aylanmadan soliq yoki boshqa soliq rejimlariga o‘tish holatlari bilan izohlanadi. 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvargacha bo‘lgan davr uchun belgilangan soliq yengilliklari hududlarni rivojlantirishni rag‘batlantirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Quyida turli mamlakatlarda kichik biznes uchun foyda solig‘i stavkalari va kichik biznesni aniqlash mezonlarini taqqoslash jadvali tahlil qilingan.

5-jadval

Standart foyda solig‘i stavkasi, kichik biznesni soliqqa tortish mezonlari va pasaytirilgan soliq stavkalari tahlili¹⁵

Mamlakat	Umumbelgilangan foyda solig‘i stavkasi	Kichik biznes uchun pasaytirilgan stavka	Kichik biznesni aniqlash mezonlari
Yaponiya	23,2 %	15 % (yillik daromadi 8 mln. ¥ gacha)	Yillik daromad 10 mln. ¥ gacha va xodimlar soni 50 nafardan kam.
Janubiy Koreya	25 %	10 % (200 mln. ₩ gacha foyda uchun)	Yillik daromad 100 mln. ₩ gacha va 50 nafardan kam xodim.
Xitoy	25 %	20 % (kichik korxonalar uchun)	Yillik daromad 3 mln. ₩ gacha va xodimlar soni 300 nafardan kam.
Qozog‘iston	20 %	1 % (maxsus rejimlarda)	Yillik daromad 24 038 AQSh dollarigacha va xodimlar soni 50 nafardan kam.
Gruziya	15 %	0 % (kichik biznes uchun)	Yillik daromad 500 000 GEL gacha va faoliyat turi sertifikatlangan bo‘lishi shart.
Yevropa Ittifoqi	20-30 %	5-15 % (mamlakatlarga qarab)	Xodimlar soni 50 nafargacha va yillik daromad 10 mln. yevrogacha

¹⁴ www.soliq.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

¹⁵ Manba: deloitte.com, stats.oecd.org, taxsummaries.pwc.com, taxfoundation.org ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ko‘pgina davlatlar kichik biznes subyektlariga soliq yengilliklarini, asosan, foyda solig‘i stavkalarini pasaytirish orqali taqdim etadi. Tahlil qilingan mamlakatlarda kichik va o‘rta biznes uchun pasaytirilgan foyda solig‘i stavkalari, odatda, umumiyl belgilangan stavkadan o‘rtacha 60 %dan kamroqni tashkil etadi.

Dissertatsiyaning “**Soliq tizimiga raqamli ma’muriyatshilikni tatbiq etishning yo‘llari**” deb nomlangan uchinchi bobida raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma’muriyatshiliginin transformatsiyasi va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashda soliq ma’muriyatshilagini optimallashtirish empirik tahlili amalga oshirilgan.

Soliqlar yig‘iluvchanligi darajasi 2019-yildagi 98,6 %dan 2023-yilda 95,6 %ga pasaygan bo‘lsa-da, 2024-yilga qo‘srimcha +4,3 % o‘sgan. Bu yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq to‘lovchilarining qonuniy faoliyatga jalb qilinishini oshirish hisobiga amalga oshirilmoqda. Ushbu yo‘nalishda raqamlashtirilgan monitoring va markirovka tizimlari nazorat samaradorligini oshirmoqda.

Soliq xizmatlarining raqamlashtirilishi 2019-yildagi 65,1 %dan 2023-yilda 74,8 %ga oshib, 2024-yilda yana +6,5 % o‘sgan. Soliq operatsiyalarining avtomatlashuvi tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoit yaratib, inson omilini kamaytiradi. Bu jarayon nafaqat ma’muriy samaradorlikni oshiradi, balki soliq to‘lovchilarining vaqt va xarajatlarini sezilarli darajada tejaydi.

6-jadval

Markirovkalash va raqamlashtirish natijasida erishilgan soliq ma’murchiligi samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili¹⁶

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar					
		2019	2020	2021	2022	2023	2024
1.	Davlat budgetining soliqli daromadlari, trln. so‘m	102,7	132,9	164,7	200,0	231,7	270,4
2.	Soliqlar yig‘iluvshanligi, foizda	98,6	97,1	97,8	94,7	95,6	+4,3
3.	Soliq to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlar raqamlashtirilishi (operatsiyalar avtomatlashuvi), foizda	65,1	65,8	65,8	74,1	74,8	+6,5
4.	Soliq omili hisobiga yashirin iqtisodiyot darajasini hisoblash aniqligi, foizda	41,0	42,0	43,0	46,0	53,0	+25,0
5.	Ixtiyoriy to‘langan soliqlar, foizda	65,0	74,1	78,1	81,4	86,0	+4,1
6.	Soliq to‘lovchilarining soliq organlari faoliyatidan qoniqish hosil qilishlari darajasi, foizda	61,3	54,7	51,1	68,7	77,3	+8,9

Soliq ma’muriyatining qulay soliq muhitini yaratishga qaratilgan tamoyillarini takomillashtirish uslubiy yondashuvni optimallashtirmasdan turib mumkin emas. Bu adolatli raqobat muhitini yaratish, soliq to‘lashdan bo‘yin tovslash sxemalaridan raqobatdosh ustunlik sifatida foydalanishning oldini olish va vijdonli soliq to‘lovchilar uchun “ko‘rinmas” soliq nazorati tamoyillarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹⁶ Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlandi.

Ushbu tadqiqot doirasida tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga soliq ma'muriyatichiligi mexanizmlarining ta'sirini chuqur va har tomonlama baholash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi hamda Jahon banki tomonidan taqdim etilgan rasmiy statistik ma'lumotlarga asoslangan holda, oddiy eng kichik kvadratlar (OLS) regressiya modeli qo'llanilib, empirik tahlil amalga oshirildi. Mazkur yondashuv tanlangan omillar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini ilmiy asoslangan holda aniqlash, shuningdek, soliq ma'muriyatichiligining optimallashtirilishi tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy faoliyatiga ko'rsatadigan ta'sirini statistik jihatdan ishonchli baholash imkonini beradi.

Shu maqsadda soliq ma'muriyatichiligin optimallashtirish orqali tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, tahlil qilish va ularning dinamikasini baholash uchun quyidagi ekonometrik model taklif etiladi:

$$Y_{t+1} = \beta_0 + \beta_1 * (Soliq_vaqt_t) + \beta_2 * (Soliq_yuki_t) + \beta_3 * (Ro'yxatga_olish_kunlari_t) + \beta_4 * (Kredit_qulayligi_t) + \beta_5 * (Raqamlashtirish_indeksi_t) + \varepsilon_t$$

Bu yerda,

Yaimdagi_KB_ulushi – kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan yalpi ichki mahsulotning (Yaim) umumiyligi hajmiga nisbatan foiz hisobidagi ulushidir. Ushbu ko'rsatkich kichik tadbirkorlik subyektlarining mamlakat iqtisodiyotidagi rolini, ularning iqtisodiy o'sishdagi hissasini baholash imkonini beradi;

Soliq vaqt – tadbirkorlik subyektlari tomonidan soliq qonunchiligiga muvofiq barcha soliq majburiyatlarini bajarish uchun yil davomida sarflanadigan umumiyligi vaqt (soatlarda ifodalangan). Ushbu ko'rsatkich soliq ma'muriyatichiligin murakkabligi yoki soddaligi, tadbirkorlar uchun soliq hisoboti bilan bog'liq byurokratik to'siqlarni baholash uchun qo'llaniladi;

Soliq yuki (Yaimga nisbatan) – bu ko'rsatkich tadbirkorlik subyektlari tomonidan to'lanadigan umumiyligi soliqlar va majburiy to'lovlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi (Yaim) ulushini foiz hisobida ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichning yuqori yoki past bo'lishi tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiruvchi yoki chekllovchi omil sifatida xizmat qiladi hamda soliq siyosatining umumiyligi iqtisodiy faollikka ko'rsatayotgan ta'sirini baholash imkonini beradi;

Ro'yxatga olish kunlari – yangi tadbirkorlik subyektini ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan vaqt (kunlarda ifodalangan). Ushbu ko'rsatkich mamlakatda biznes yuritishni boshlashdagi ma'muriy to'siqlar va jarayonlarning murakkabligini baholash uchun xizmat qiladi;

Kredit qulayligi – tadbirkorlik subyektlarining kredit mablag'lariga ega bo'lish imkoniyatini baholovchi indeksdir. Indeks 0 dan 100 gacha bo'lgan oraliqda baholanib, baland ball kredit olish imkoniyatlari kengligini, past ball esa kredit olishdagi qiyinchiliklarni ko'rsatadi;

Raqamlashtirish indeksi – Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan "Digital Adoption Index" asosida raqamli xizmatlardan foydalanish va biznes jarayonlarini raqamlashtirish darajasini ifodalovchi ko'rsatkich. Ushbu indeks tadbirkorlik

subyektlarining davlat xizmatlari va boshqa biznes jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini aks ettiradi;

β_0 – Konstant (intersept). Ushbu qiymat regressiya modelining mustaqil o‘zgaruvchilar qiymati nolga teng bo‘lgan holatda bog‘liq o‘zgaruvchining dastlabki bazaviy qiymatini ifodalaydi.

$\beta_1 - \beta_5$ – regressiya koeffitsiyentlari. Bu koeffitsiyentlar regressiya modelidagi mustaqil o‘zgaruvchilar qiymatlaridagi bir birlik o‘zgarishning bog‘liq o‘zgaruvchiga ko‘rsatadigan ta’sir kuchini aniqlaydi.

ε_t – xatolik (aniqlanmagan omillar).

7-jadval

Korrelatszion tahlil natijalarini¹⁷

O‘zgaruvchilar	Yaimdagi_KB ulushi	Soliq_vaqti	Soliq_yuki	Ro‘yxatga_oli sh_kunlari	Kredit_qulayligi	Raqamlashtirish indeksi
Yaimdagi_KB ulushi	1.00	-0.62	-0.58	-0.49	0.65	0.72
Soliq_vaqti	-0.62	1.00	0.68	0.54	-0.60	-0.63
Soliq_yuki	-0.58	0.68	1.00	0.57	-0.53	-0.55
Ro‘yxatga_oli sh_kunlari	-0.49	0.54	0.57	1.00	-0.47	-0.42
Kredit_qulayligi	0.65	-0.60	-0.53	-0.47	1.00	0.66
Raqamlashtirish indeksi	0.72	-0.63	-0.55	-0.42	0.66	1.00

Tadqiqotda kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulot (Yaim)dagи ulushiga soliq ma’muriyatçiligi va raqamlashtirish bilan bog‘liq omillarning ta’siri empirik ravishda baholandi. Olingan ekonometrik natijalar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat tomonidan qo’llaniladigan siyosiy chora-tadbirlar samaradorligini baholash imkonini beradi.

8-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlari rivojlanishida soliq ma’muriyatçiligi ta’sirining regressiya tahlili natijalarini¹⁸

O‘zgaruvchilar	Koef.	Standart_xatolik	t-qiymat	p-qiymat	[95 % ishonch oralig‘i]	Sig.
Soliq_vaqti	-0.18	0.06	-3.00	0.007	[-0.31; -0.05]	***
Soliq_yuki (Yaimga nisbatan)	-0.15	0.05	-3.20	0.003	[-0.25; -0.05]	***
Ro‘yxatga_oli sh_kunlari	-0.09	0.04	-2.25	0.031	[-0.17; -0.01]	**
Kredit_qulayligi	0.24	0.07	3.43	0.002	[0.10; 0.38]	***
Raqamlashtirish indeksi	0.31	0.08	3.88	0.000	[0.15; 0.47]	***
Constant (Konstanta)	5.65	1.25	4.52	0.000	[3.10; 8.20]	***
Mean dependent var	12.683	SD dependent var			0.226	
R-squared	0.971	Number of obs			49	
F-test	286.037	Prob > F			0.000	
Akaike crit. (AIC)	-168.940	Bayesian crit. (BIC)			-157.589	

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

¹⁷ Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tayyorlandi.

¹⁸ Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tayyorlandi.

Empirik tahlil natijalariga ko‘ra, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga eng yuqori ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida raqamlashtirish indeksi ($\beta=0.31$; $p<0.01$) aniqlandi. Bu ko‘rsatkich raqamli xizmatlardan foydalanish va biznes jarayonlarini raqamlashtirish kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishini sezilarli ravishda rag‘batlantirishini anglatadi. Mazkur natija Hallward-Driemeier va Nayyar tomonidan ilgari surilgan “raqamli texnologiyalarning tadbirkorlik rivojidagi katalizatorlik roli” nazariyasiga muvofiq keladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, raqamlashtirilgan biznes jarayonlari tadbirkorlik subyektlarining tranzaksion xarajatlarini kamaytirib, samaradorligini oshiradi hamda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Shuningdek, kichik biznes rivojlanishiga kredit olish imkoniyatlarining qulayligi ($\beta=0.24$; $p<0.01$) ham ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu natija kichik biznes uchun moliyaviy manbalarga ega bo‘lish imkoniyatlarini kengaytirish iqtisodiy o‘sish uchun muhim ekanligini ta’kidlovchi Schiffer va Veder tadqiqotlariga hamohangdir. Ularning fikricha, kredit olishdagi qulayliklar kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya salohiyatini oshiradi va iqtisodiy faoliyat ko‘lamini kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi.

Boshqa tomondan, soliq ma’muriyatichiliginin murakkabligi bilan bog‘liq soliq hisobotlarini topshirish vaqtin ($\beta=-0.18$; $p<0.01$) hamda soliq yuki darajasi ($\beta=-0.15$; $p<0.01$) kichik biznes rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida aniqlangan. Bu natijalar Carlin va Mayer (2003) tomonidan taklif etilgan “soliq ma’muriyatichiliginin tadbirkorlikka salbiy ta’siri” nazariyasini tasdiqlaydi. Ushbu nazariya soliq to‘lash jarayonidagi murakkabliklar va yuqori soliq yukining tadbirkorlik subyektlarining rasmiy iqtisodiy faoliyatdan voz kechish yoki noformal iqtisodiyotga o‘tishga undovchi asosiy sabablardan biri ekanligini ta’kidlaydi.

Yana bir e’tiborga loyiq natija biznesni boshlash uchun talab qilinadigan vaqt (ro‘yxatga olish kunlari) ($\beta=-0.09$; $p<0.05$) ko‘rsatkichi bilan bog‘liq. Biznesni boshlash jarayonlaridagi ortiqcha byurokratik talablar va vaqt sarfi tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faolligini sezilarli darajada pasaytirishi empirik ravishda tasdiqlandi. Bu natija Klapper va Lov tadqiqotlari bilan hamohang bo‘lib, ular biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarining soddalashtirilishi yangi tadbirkorlik subyektlarining paydo bo‘lishini va iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishini ta’kidlaydilar.

Tadbirkorlik subyektlarini qo’llab-quvvatlashda soliq ma’muriyatichiliginini takomillashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Umumiy ovqatlanish korxonalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini va mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lashdan ozod etilishi va respublika tumanlarida faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan ijtimoiy soliq stavkasini bazaviy hisoblash miqdorining 50 foiziga qisqartirish taklifi ishlab chiqildi.

Mazkur taklifning iqtisodiy mazmun-mohiyati shundan iboratki, umumiy ovqatlanish korxonalarining yer solig‘i va mol-mulk solig‘idan ozod etilishi ularning moliyaviy yukini kamaytiradi va aylanma mablag‘larini ko‘proq ishlab

chiqarish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda infratuzilmani modernizatsiya qilishga yo'naltirish imkonini beradi. Shu yo'l bilan korxonalarining rentabelligi oshadi, ish o'rnlari saqlab qolinadi va iste'molchilar uchun xizmatlar narxining keskin oshishi oldi olinadi.

9-jadval

2020-2024-yillarda kichik korxonalar soni, tovar aylanmasi, soliq to'lovlarini va soliq imtiyozlari dinamikasi

Yil	Kichik korxonalar soni	Umumiy soliq to'lovlarini (trln. so'm)	Umumiy tovar aylanmasi (trln. so'm)	Soliq imtiyozlari (mlrd. so'm)
2020	45 728	7,0	114,6	2,5
2021	52 864	8,3	127,3	3,0
2022	60 000	9,6	140,0	3,5
2023	64 272	10,9	152,7	4,1
2024	77 000	11,2	160,0	4,5

Quyida keltirilgan 9-jadval ma'lumotlari kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyati yildan yilga barqaror o'sib borayotganini ko'rsatadi. 2020-yilda 45 mingta kichik biznes faoliyat yuritgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 60 mingga oshgan, 2024-yilda esa 77 mingga yetgani qayd etilgan. Shu davrda umumiy tovar aylanmasi 114,6 trln. so'mdan 160 trln. so'mgacha oshgan va soliq imtiyozlari hajmi ham ko'paygan. Bu holat kichik korxonalar faoliyatida modernizatsiya, raqamlashtirish va soliqqa tortish mexanizmlarining takomillashtirilishi orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda davlat siyosatining samaradorligini ko'rsatadi.

10-jadval

2020-2024-yillarda kichik korxonalarining soliq tushumlari tarkibi va ularning dinamikasi (mlrd. so'mda)¹⁹

Soliq turlari	Yillar					O'zgarish (2024 y./2022 y.)
	2020	2021	2022	2023	2024	
Aksiz solig'i	4 683,4	5 225,6	5 767,9	6 836,7	6 852,4	+18,8 %
QQS	1 134,1	1 384,1	1 634,2	2 009,5	2 134,3	+30,6 %
Foyda solig'i	431,0	576,0	721,0	906,5	1 011,0	+40,2 %
JShODS	257,4	296,9	336,5	393,2	415,6	+23,5 %
Ijtimoiy soliq	185,3	217,6	249,9	294,9	314,5	+25,9 %
Yer va mol-mulk solig'i	180,6	205,6	230,7	251,2	280,8	+21,7 %
Boshqa soliqlar	159,9	176,1	192,3	229,3	224,7	+16,8 %
Jami:	7 992,8	8 802,9	9 613,1	10 921,2	11 233,4	+16,9 %

10-jadval tahliliga ko'ra, 2022-2024-yillar oralig'ida soliqlar tarkibida eng katta o'sish foyda solig'i (+40,2 %) va QQS (+30,6 %)da qayd etilgan. Bu esa kichik korxonalarining rentabelligi oshib borayotganini, ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar hajmi hamda ularning qo'shilgan qiymati kengayganini anglatadi.

Shu bilan birga, ijtimoiy soliq stavkasining qisqarishi tadbirkorlik subyektlari zimmasidagi soliq yukini kamaytiradi va ularning ishchi kuchidan rasmiy

¹⁹ www.soliq.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

foydalishiga rag‘bat beradi. Natijada yashirin mehnat munosabatlari qisqaradi, ish o‘rnlari rasmiylashtiriladi va bu bevosita jismoniy shaxslar daromad solig‘i (JShODS) tushumlarining oshishiga olib keladi. Demak, ijtimoiy soliqni pasaytirish qisqa muddatda budjet daromadlarini kamaytirsa-da, uzoq muddatda soliqqa tortiladigan bazani kengaytirib, daromad solig‘i tushumlarining barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

2. Qimmatbaho va nodir metallar hamda uglevodorod xomashyosini qazib oluvchi yuridik shaxslar maxsus renta solig‘i to‘lovchilar tarkibiga kiritilib, realizatsiyadan olingan renta daromadini ushbu soliq obyektiga kiritish ilmiy asoslantirildi.

Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq ulushida renta solig‘i O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim moliyaviy manba bo‘lib, tabiiy resurslardan samarali foydalishni ta’minlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ammo chet el amaliyotida qo‘llanilayotgan dinamik stavkalar, barqaror jamg‘arma fondlari va ijtimoiy taqsimot mexanizmlari O‘zbekistonda renta solig‘ini yanada takomillashtirish uchun o‘rnak bo‘lishi mumkin. Shu yo‘nalishda xalqaro tajribalarni chuqur o‘rganish va milliy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish zarur.


11-jadval

O‘zbekiston va chet el amaliyotida renta solig‘i taqqoslanishi²⁰

Davlat	Qo‘llaniladigan sohalar	Renta solig‘i stavkalari	Soliq ma’muriyatichiligidagi yondashuvlar	Tushumlarning foydalaniishi
O‘zbekiston	Neft va gaz qazib olish, uglevodorodlar	Soliq bazasiga nisbatan 25 foiz miqdorida belgilanadi	Eksport va ichki bozorga yo‘naltirilgan mahsulotga, qazib olish huquqi tanlov savdolariga qo‘yilganda, differensial yondashuv mavjud	Davlat budjeti, ijtimoiy dasturlar va infratuzilma rivoji
	Qimmatbaho metallar		Qazib olish hajmi va narxiga ko‘p ta’sir qilmaydi	
Rossiya	Neft va gaz	Xalqaro narxlarga qarab dinamik stavka	Soliq stavkasi xalqaro bozordagi narxlarga mos ravishda avtomatik ravishda o‘zgaradi	Budjet barqarorligini ta’minlash
Norvegiya	Neft va gaz sanoati	50 %gacha	Yuqori stavka joriy qilingan. Soliq deklaratsiyalari ochiq e’lon qilinadi, soliq nazorati kuchli	Neft jamg‘armasi orqali kelajak avlodlar uchun saqlanadi
Kanada	Tog‘-kon, yog‘och sanoati	Resurs narxi va qazib olish xarajatlariga bog‘liq	Soliqni mahalliy va federal darajada boshqarish; soliqlarni adolatli taqsimlash mexanizmi	Mahalliy infratuzilma va ijtimoiy dasturlar
Australiya	Tog‘-kon sanoati	Foydaga asoslangan soliq (MRRT), qazib olish hajmi emas, foyda hisobga olinadi	Foydaga asoslangan soliq (MRRT), qazib olish hajmi emas, foyda hisobga olinadi	Resurslarni tiklash va ijtimoiy dasturlar

²⁰ Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlandi.

Resurs soliqlari tushumlarida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning ulushi asosiy o'rinni egallaydi – 15 300,3 mld. so'm yoki umumiy tushumlarning 54,5 foizi. Ushbu soliqlar, ayniqsa, oltin qazib oluvchi korxonalar hisobiga shakllandi, bu toifa jami tushumlarning 62,1 foizini ta'minladi. Ushbu natijalar tog'-kon va yer qa'ri resurslaridan samarali foydalanimishni rag'batlantiruvchi va soliqlarning to'liq yig'ilishini ta'minlovchi ma'muriy yondashuvning ahamiyatini ko'rsatadi.



6-rasm. Soliq turlari kesimida tushumlar, foizda²¹

Resurs soliqlarining tarkibi bo'yicha tushumlari 2024-yilda 2023-yilga nisbatan mol-mulk solig'ida 27,0 %ga, yer solig'ida 29,9 %ga, yer qa'ridan foydalanganlik uchun solig'ida 10,2 %ga hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqda 12,4 foizga o'sdi.

3. Umumiy ovqatlanish korxonalari soliqlar (foyda, suv, yer va mol-muk) va yig'imlar bo'yicha qarzdorlik hamda jarima va penyalarni foizsiz, arizasiz, faqat soliq organlarini xabardor qilib, teng ulushlarda kechiktirib to'lash huquqini berish taklifi modellashtirildi.

Hozirgi soliq ma'murchiligidagi umumiy ovqatlanish korxonalari uchun bir qator muammolar mavjud, jumladan: soliqlarni kechiktirib to'lashda byurokratiya va ariza talab qilinishi, qarzdorlik yuzaga kelganda foiz va penyalarni tez yig'ilishi, birdaniga katta miqdorda to'lov qilish korxonalarning aylanma mablag'ini kamaytirishi. Taklif etilgan mexanizm esa ushbu muammolarga yechim bo'lib, soliqlar va yig'imlarni foizsiz, arizasiz, faqat soliq organini xabardor qilish orqali teng ulushlarda to'lash imkoniyatini yaratadi, shu orqali soliq ma'murchiligi soddalashadi, budjet tushumlari barqarorlashadi va tadbirkorlarning moliyaviy barqarorligi saqlab qolinadi.

²¹ www.mf.uz ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

12-jadval

Jarima va penyalarni foizsiz, arizasiz, teng ulushlarda kechiktirib to‘lash modeli (dizayn parametrlari)²²

Blok	Element	Taklif / Tavsif
Qamrov	Subyektlar	Umumiy ovqatlanish korxonalari
Soliq va yig‘imlar	Turlar	Foyda solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer solig‘i, mol-mulk solig‘i hamda tegishli yig‘imlar; mavjud jarima va penyalar ham ushbu mexanizmga kiritiladi.
Yaroqlilik mezonlari	Kimlarga qo‘llanadi	(i) Faol (STIR amalda), (ii) so‘nggi 12 oyda kamida 9 oy hisobotlarni topshirgan, (iii) qizil rangda mavjud bo‘lmaganlar.
Avto-yoqish	Trigger	Qarzdorlik 30 kalendar kun to‘lanmaganida arizasiz “bo‘lib-bo‘lib to‘lash rejimi” avtomatik yoqiladi; korxona faqat soliq organini xabardor qiladi (e-xabarnoma).
Xabardor qilish	Kanal	my.soliq (shaxsiy kabinet) 5 ish kuni ichida.
Muddati	Reja uzunligi	Qarzdorlik summasiga ko‘ra
To‘lov usuli	Teng ulushlar formulasi	Har oy: To‘lov=Qarzdorlik (joriy)/N. Hisob-kitob oyi boshi kuni avtodebet orqali yechiladi.
Yig‘imlar	Foiz/pena	Reja davomida qo‘srimcha foiz va penya hisoblanmaydi (0 %).
Intizom	Kechikish ta’rifi	1-to‘lov 10 kungacha kechiksa – ogohlantirish; >10 kun yoki ketma-ket 2 oy to‘lanmasa – rejim bekor qilinadi va odatdagi undirish tartibi tiklanadi.
Cheklov	Qayta foydalanish	12 oyda 1 martadan ko‘p bo‘lmasin; “yuqori xavf” segmenti (takroriy buzuvchilar) uchun 24 oy ichida 1 marta.
Kafolat	To‘lovni ta’minalash	Bank avtodebet/naqd oqimlari bilan “soft-limit” monitoringi.
IT integratsiya	Raqamli talablar	DSQ shaxsiy kabineti, bank API (UZCARD/HUMO), billing, e-ogohlantirish, audit log; real vaqtida status paneli.
Huquqiy asos	Normativ moslashuv	Soliq kodeksiga bo‘lib-bo‘lib foizsiz to‘lashning “arizasiz/notification-only” tartibi kiritiladi.
Oshkorralik	Hisobot	Oy yakunida DSQ: rejaga ulanganlar soni, qoplanish jadvali, buzilishlar ulushi; korxona kabinetida individual grafik va qolgan qoldiq.
Cheklovlar	Nimalar qo‘silmaydi	Jinoyat alomatlari bo‘lgan holatlar, soxta hisob-faktura bo‘yicha da‘volar, sud ijrosi boshlangan majburiyatlar.
Bosqichma-bosqich	Pilot	3 oy pilot: 3-5 tuman/shaharda; keyin respublika bo‘yicha kengaytirish (iterativ tuzatishlar bilan).
Budjet oqimi	Naqd oqim profili	Umidsiz qarzlar o‘rniga barqaror oylik tushumlar.
Taqdim etiladigan hujjat	Hujjat aylanishi	Qog‘ozsiz – e-bildirishnomha va e-jadval; foydalanuvchi uchun yuklab olinadigan Excel grafik.

Ushbu 12-jadval umumiy ovqatlanish korxonalari uchun foizsiz, arizasiz va teng ulushlarda kechiktirib to‘lash mexanizmini to‘liq yoritadi. Unda qaysi soliqlar va yig‘imlar kirishi, kimlarga qo‘llanishi, avtomatik tarzda yoqilish shartlari, to‘lov muddatlari (6, 12 yoki 18 oy) hamda teng ulushlarda to‘lov formulasi keltirilgan. Shuningdek, intizom qoidalari, cheklovlar va mexanizmni qo‘llash tartibi aniq belgilab berilgan. Bunda nafaqat asosiy talablar, balki uni amaliyotda joriy etish uchun zarur bo‘lgan texnik va huquqiy jihatlar ham jamlangan. Masalan, soliq organlari axborot tizimlari bilan integratsiya, elektron ogohlantirish, huquqiy asos sifatida Soliq kodeksiga qo‘srimcha norma kiritish ham ko‘zda tutilgan. Bu mexanizm qisqacha qilib aytganda:

²² Muallif ishlanmasi.

korxonalar uchun – gardanidagi katta soliq yukini yengillashtiradi, likvidlikni saqlaydi, jarima va penyalarni to‘liq qoplash imkonini beradi, byurokratik jarayonlarni (ariza yozish) kamaytiradi hamda bankrotlik holatlari oldini oladi;

davlat uchun – soliqlarni yig‘ish kafolatlanadi, “soya iqtisodiyoti” kamayadi, budjet tushumlari barqaror holda kelib tushadi, umidsiz qarzlar ulushi kamayadi, nazorat tizimi shaffoflashadi.

4. Yangi tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlariga aylanmadan olinadigan soliq stavkasi, yer solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlarni kamaytirilgan stavkada to‘lash zarurligi taklifi asoslanтирildи.

Tadbirkorlar daromadlarini soliqqa tortish ma’muriyatichiligi iqtisodiyotni boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatda soliq siyosatini samarali amalga oshirish va davlat budgetini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Tadbirkorlik subyektlari uchun soliq majburiyatları daromadlar hajmi va tovar aylanmasi asosida belgilanishi ularning moliyaviy yukini yengillashtirish maqsadida ixtiyoriy va majburiy soliq variantlarini tanlash imkoniyatini yaratadi. Yakka tartibdagи tadbirkorlar (YaTT) va yuridik shaxslar uchun tovar aylanmasiga qarab qat’iy belgilangan soliq, daromad solig‘i, aylanmadan soliq, foyda solig‘i yoki qo‘shilgan qiymat solig‘i kabi tartiblar joriy etilgan. Quyidagi jadval tadbirkorlar uchun belgilangan soliq rejimlarini aniq va qulay tarzda taqdim etadi (13-jadval).

13-jadval

Tadbirkorlik subyektlari aylanma mablag‘lari bo‘yicha soliq rejimlari tavsifi²³

Yillik tovar aylanmasi (so‘m)	Majburiy rejim	Ixtiyoriy rejim	Izoh
Yakka tartibdagи tadbirkor			
<100 mln.	Daromad solig‘i (12 %) yoki qat’iy belgilangan daromad solig‘i	-	Soliqlarni yillik daromad deklaratsiyasi asosida yoki qat’iy belgilangan miqdorda to‘lashni tanlashi mumkin.
>100 mln. <1 mlrd.	Aylanmadan soliq yoki qat’iy belgilangan aylanmadan soliq (yillik aylanmasi: 0-500 mln. so‘mgacha – 25 mln.; 500 mln.-1 mlrd. so‘mgacha – 34 mln. so‘m)	Foyda solig‘i	100 mln. so‘mdan oshgan summadan aylanmadan soliqni to‘lashga o‘tadi yoki QQS va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tishi mumkin.
>1 mlrd.	Foyda solig‘i	-	QQS va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi yoki foyda solig‘ini soddalashtirilgan tartibda to‘lashni tanlashi mumkin.
Yuridik shaxslar			
<1 mlrd.	Aylanmadan soliq	Foyda solig‘i	Tanlash huquqiga ega.
>1 mlrd.	Foyda solig‘i	-	Tanlash huquqiga ega emas.

Natijada aylanmadan soliq va foyda solig‘i to‘lovchilar sonida sezilarli o‘sish kuzatildi. Bu holat yillik tovar aylanmasi 1 mlrd. so‘mdan oshmaydigan YaTTlarning aylanma soliq rejimiga o‘tishi, shuningdek, yillik tovar aylanmasi 1 mlrd. so‘mdan oshgan mikrofirma, kichik korxonalar va YaTTlarning foyda solig‘i hamda QQS to‘lashga jalb qilinishi bilan izohlanadi. Ushbu o‘zgarishlar, 2020-

²³ Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlandi.

2024-yillar davomida aylanmadan soliq to‘lovchilar va foyda solig‘i to‘lovchilar tarkibida ulushning mos ravishda 75 % va 25 %ga taqsimlanishiga olib kelgan.

Biroq bu jarayon kichik biznes subyektlari sonining qisqarishiga ham sabab bo‘ldi. Soliq ma’muriyatçiligidagi murakkabliklar va soliq yukining oshishi natijasida ayrim kichik biznes subyektlari rasmiy iqtisodiyotdan chiqib, yashirin iqtisodiyotga o‘tmoqda.

14-jadval

Aylanmadan olinadigan qat’iy belgilangan va proporsional soliq stavkada soliqqa tortish taqqoslama tahlili²⁴

Yillik tovar aylanmasi chegarasi (so‘m)	Yillik tovar aylanmasi (so‘m)	Qat’iy belgilangan soliq (mln. so‘m)	4 % aylanmadan soliq (mln. so‘m)	Izoh
0-500 mln.	500 mln.	25.0	20.0	Qat’iy belgilangan soliq tadbirkorlar uchun samarasiz
500 mln. – 1 mldr.	600 mln.	34.0	24.0	
	700 mln.	34.0	28.0	
	800 mln.	34.0	32.0	
	850 mln.	34.0	34.0	
	900 mln.	34.0	36.0	
	950 mln.	34.0	38.0	

Izoh. 3/2/1 foizli tabaqalashtirilgan soliq stavkasida soliqqa tortiladigan tadbirkorlik subyektlari qat’iy belgilangan aylanmadan soliq stavkasi rejimida to‘lashi ular zimmasidagi soliq yukini oshiradi.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qat’iy belgilangan soliq stavkasi va proporsional soliq (4 % aylanmadan soliq) o‘rtasida sezilarli farq mavjud. 0-500 mln. so‘m yillik tovar aylanmasi uchun qat’iy belgilangan soliq (25 mln. so‘m) 4 % proporsional soliqdan (20 mln. so‘m) yuqori bo‘lib, bu soliq yukini oshiradi.

XULOSA

Tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashda soliq ma’muriyatçiligi amaliyotini takomillashtirishning amaliy muammolarini hal etishga qaratilgan ushbu ish doirasida olib borilgan tadqiqotlar quyidagi xulosa va takliflarni shakllantirishga imkon berdi:

1. Yashirin va norasmiy iqtisodiyot O‘zbekiston soliq tizimiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Naqd pul muomalasi yuqoriligi, ish haqini norasmiy to‘lash va iqtisodiy faoliyatning rasmiylashtirilmaganligi kabi holatlar davlat budjetiga tushumlarning kamayishiga olib kelmoqda. Yashirin iqtisodiyotning hajmini kamaytirish uchun soliq tizimini to‘liq raqamlashtirish va soliq to‘lovchilarning iqtisodiy faoliyatini ochiq qilish zarur. Naqd pul aylanishini cheklash, elektron to‘lov tizimlarini kengaytirish va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish yashirin iqtisodiyotga qarshi samarali chora-tadbirlar hisoblanadi.

2. Soliq ma’muriyatçiligidagi mavjud muammolar va soliq siyosatining murakkabligi soliq to‘lovchilar uchun katta qiyinchilik tug‘diradi. Davlat tomonidan soliqlarni yig‘ish samaradorligini oshirish va soliq yukini adolatli taqsimlash orqali soliqqa oid islohotlarni amalga oshirish tadbirkorlik sektori molivayiy barqarorligini tiklashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, davlatning soliq imtiyozlari va subsidiyalari orqali korxonalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan choralarini

²⁴ Muallif hisob-kitobi asosida tayyorlandi.

korxonalarining soliq yukini kamaytirish va investitsiyaviy faollikni oshirishda ijobiy natijalar berishi mumkin.

3. O‘zbekiston Soliq kodeksining tez-tez o‘zgarib turishi tadbirkorlar uchun barqarorlikni buzmoqda. Soliq siyosatining izchilligi va barqarorligi tadbirkorlik muhitini yaxshilashda muhim omildir. Soliq kodeksiga kiritiladigan o‘zgarishlar puxta o‘ylangan, ilmiy asoslangan va uzoq muddatli strategiyalarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

4. Tadbirkorlik subyektlari daromadlarini soliqqa tortish mamlakat iqtisodiy barqarorligi va davlat budgetining barqaror tushumlarini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Soliq tizimining mavjud tartib-qoidalari YaTT va yuridik shaxslar uchun daromad solig‘i, foyda solig‘i, aylanmadan soliq va qo‘shilgan qiymat solig‘i kabi variantlarni taqdim etib, bir qarashda ularning moliyaviy yukini kamaytirish imkonini beradi. Lekin amaliyatda tadbirkorlik faoliyatining soliq bazasi aylanma mablag‘lar asosida belgilanishi esa tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning samarali usuli emasligi aniqlandi.

5. Tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan soliq stavkasi va proporsional soliq rejimlari tovar aylanmasi hajmiga mos tarzda joriy etilmagan. Qat’iy belgilangan aylanmadan soliq kichik hajmdagi aylanma uchun noqulay bo‘lib, katta hajmdagi aylanmalar uchun maqbulroq hisoblanadi. Bu esa kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy bosimni oshirib, soliq ma’muriyatchiligidagi moslashuvchanlikni talab qiladi. Shu sababli har bir soliq rejimini tanlashda tadbirkorlik subyektlarining hajmi va faoliyat sohasiga e’tibor qaratish lozim.

6. Yangi tashkil etilgan soliq to‘lovchilarga imtiyozlar berish, iqtisodiy qiyin ahvolga tushgan soliq to‘lovchilarini soliqlar yordamida qo‘llab-quvvatlash va qarzdorlik hamda jarimalarni foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini taqdim etish soliq ma’murchilagini takomillashtirishning samarali vositalaridan biridir. Ushbu yondashuv, bir tomonidan, yangi tadbirkorlik subyektlarini iqtisodiy faoliyatga jalb qilib, ularning bozor sharoitlariga moslashuvini yengillashtiradi, boshqa tomonidan, moliyaviy qiyin ahvolda bo‘lgan korxonalarga vaqtincha yengilliklar berish orqali ularning faoliyatini tiklashiga imkon yaratadi. Ayniqsa, infratuzilmasi og‘ir hududlarda joylashgan soliq to‘lovchilar uchun qo‘srimcha imtiyozlar joriy etish ushbu mintaqalarda iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirib, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qiladi.

7. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan o‘zaro hamkorligini davlat boshqaruvi paradigmاسini qayta ko‘rib chiqish, mijozga yo‘naltirilgan yondashuvga o‘tish orqali yaxshilash mumkin. Bu ishonch darajasini va soliq majburiyatlarini bajarish qulayligini oshiradi. Mijozga yo‘naltirilganlik nafaqat biznes, balki davlat boshqaruvi uchun ham asos bo‘ladi. Soliq organlari uchun soliq to‘lovchilarning ehtiyojlarini tushunish va ularning ishini ularning nuqtayi nazaridan baholash muhim, bu esa o‘zaro hamkorlik sifatini oshiradi va soliq to‘lovchilarning qoniqish darajasini oshirish imkonini beradi.

8. Soliq organlarining tahliliy imkoniyatlarini kengaytirish soliq nazorati samaradorligini oshirish uchun zarur. Davlat soliq xizmati real vaqt rejimida ma’lumotlarni qayta ishlash va o‘z-o‘zini o‘rganish hamda nazoratni yaxshilash uchun sun‘iy intellekt, Bigdate, ML texnologiyalaridan foydalanishga qodir bo‘lgan ko‘p funksiyali tahliliy vositalarni joriy qilishi kerak.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.I.17.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**
**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

МИРСОБИТОВ МИРЗИЁД МИРЗОХИД УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОГО
АДМИНИСТРИРОВАНИЯ ДЛЯ ПОДДЕРЖКИ СУБЪЕКТОВ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА**

08.00.07 - "Финансы, денежное обращение и кредит"

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

город Ташкент – 2025 год

Тема диссертации доктора философии (Phd) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за номером В2025.2.PhD/Iqt5428.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.tsue.uz) и на информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Кузиева Наргиза Рамазановна
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Жумаев Нодир Хосиятович
доктор экономических наук, профессор

Нормурзаев Умид Холмурзаевич
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится «24» 12 2025 г. в 16⁰⁰ часов на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней DSc 03/30.12.2019.17.01 при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100000, г. Ташкент, проспект Амира Темура, 60А. Тел. (99871) 234-53-34; Факс (99871) 234-46-26; e-mail: ilmiykengash@tsue.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована за №185). Адрес: 100000, г. Ташкент, проспект Амира Темура, 60А. Тел. (99871) 234-46-26; e-mail: kutubxona@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «10» 12 2025 г.
(реестр протокола рассылки № 89 от «10» 12 2025 года).



Т.З.Тешабаев

Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор экономических наук,
профессор

Ж.Х.Атаниязов

Члененный секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор экономических наук,
профессор

И.Н.Кузиев

Председатель научного семинара
при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
доктор экономических наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации.

Совершенствование налогового администрирования для поддержки субъектов предпринимательства в мире является одним из актуальных вопросов в современных глобальных экономических условиях. Согласно отчету "Paying Taxes", ежегодно публикуемому PwC, во многих странах упрощение и цифровизация налоговых процессов играют решающую роль в создании благоприятной среды для предпринимателей. Например, в 2024 году среднее время, затрачиваемое бизнесами по всему миру на подготовку и представление налоговой отчетности, было сокращено с 234 часов до 162 часов²⁵, что свидетельствует об упрощении налоговой системы и эффективности автоматизированных процессов.

В мировой практике рассмотрение субъектов предпринимательства как решающей силы в развитии экономики на сегодняшний день является одним из приоритетов государственной политики. Потому что развитие малого и среднего бизнеса не только ускоряет экономический рост, но и выступает важным фактором повышения занятости населения, создания новых рабочих мест, стимулирования инноваций и повышения уровня благосостояния. По мере увеличения доли этого сектора в экономике вопрос поддержки его устойчивого развития приобретает актуальное значение в государственной политике. С этой точки зрения, эффективное стимулирование субъектов предпринимательства, создание для них благоприятной бизнес-среды, особенно совершенствование налогового администрирования, является одной из приоритетных задач в стратегии развития национальной экономики. Упрощение и прозрачность налогового администрирования не только снизит налоговую нагрузку на предпринимателей, но и усилит их стремление своевременно и в полном объеме уплачивать налоги. На этой основе будут стабильно обеспечены доходы государственного бюджета, повысится инвестиционная привлекательность в экономике и создана основа для формирования здоровых рыночных отношений.

Республика Узбекистан поставила перед собой такие стратегические цели, как обеспечение устойчивого экономического роста и повышение доходов на душу населения до 2030 года²⁶. Одной из актуальных задач на пути к достижению этой цели является поддержка малого и среднего бизнеса и создание для них благоприятной экономической среды. Однако нынешняя налоговая система и администрирование по-прежнему сложны, что приводит к следующим проблемам: сложность и неравномерность процесса налогообложения (в 2024 году число плательщиков налога с оборота составило 347 тысячу, но 17% из них прекратили свою деятельность из-за высокой налоговой нагрузки при налогообложении); высокая доля теневой и

²⁵ Отчеты "Paying Taxes" (последние публикации): <https://www.pwc.com/gx/en/services/tax/publications/paying-taxes.html>

²⁶ Постановление Президента Республики Узбекистан от 11.09.2023 г. №ПП-300 "О мерах по качественной и своевременной реализации Стратегии "Узбекистан – 2030" в 2023 году

неформальной экономики (в 2024 году доходы государственного бюджета составили 274,4 трлн сумов, в то время как из-за теневой и неформальной экономики было потеряно около 132,5 трлн сумов доходов); относительно высокая налоговая нагрузка для малого бизнеса (несправедливая фиксированная ставка оборота, высокая ставка налога на прибыль и НДС); необходимость анализа эффективности налоговых льгот и преференций. Поэтому на повестке дня стоят вопросы упрощения порядка налогообложения субъектов предпринимательства, автоматизации административных процессов и повышения экономических стимулов.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализацию задач, определенных в Законе Республики Узбекистан от 29 декабря 2021 года № ЗРУ-741 "О внесении изменений и дополнений в Налоговый кодекс Республики Узбекистан", Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 "О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы", Указе Президента Республики Узбекистан от 28 июня 2022 года № УП-162 "О мерах по созданию благоприятных условий для бизнеса в период реформирования налогового администрирования", а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. "Духовно-этическое и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики".

Степень изученности проблемы. Современное состояние, проблемы и перспективы развития практики поддержки субъектов предпринимательства путем совершенствования налогового администрирования отражены в исследованиях зарубежных ученых M. Keen, L. Ojo, M. Basri, A. Faúndez-Ugalde, B. Galle, T. Krieger, J. Chindengwike, P Braunerhjelm, M. LA, L. Zhang, J. Zhang²⁷.

